

## **SAMARQAND VILOYATI AHOLISI ORASIDA COVID-19 KASALLIGIDAN KEYINGI BEMORLARGA KUZATILGAN KASALLIKNING ASORATI VA KASALLIKLARNING O'ZIGA XOS KECHISH XUSUSIYATLARI**

**G.K.Dustova<sup>1</sup>,**

**A.A.Kurbanov<sup>2</sup>**

**Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Jamoat salomatligi va sog'liqni  
saqlash menejmenti kafedrasи**

<https://www.doi.org/10.37547/ejmns-v03-i02-p1-30>

### **ARTICLE INFO**

Received: 09<sup>th</sup> February 2023

Accepted: 16<sup>th</sup> February 2023

Online: 17<sup>th</sup> February 2023

### **KEY WORDS**

### **ABSTRACT**

*Hozirgi kunda Coved-19 pandemiyasida yuzaga kelgan noxush holat va bu bilan bog'liq bo'lgan inson salomatligi ko'rsatkichlarining murakkab ahvolga tushib qolganligi ilmiy manbalar sharhidan ma'lum. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti xabariga ko'ra COVID-19 virusi shiddatli ravishda dunyo bo'ylab ko'plab mamlakatlarda aggressiv tarqaldi [1]. Shu munosabat bilan odamlarning salomatlik ko'rsatkichlariga coved-19 kasalligidan keyingi asoratlarning salbiy ta'siri tobora oshib borayotganini e'tiborga olib, O'zbekiston sharoitida ko'pgina kasalliklarga nisbatan tibbiy yo'nalish va qarashlarni qayta ko'rib chiqish hozirgi zamon talablariga mos masala bo'lib qolmoqda.*

COVID-19 bilan kasallangan bemorlar sonining keskin ko'tarilishi, nafas olish yo'llari kasalliklarini keltirib chiqaruvchi karona virusning yangi shtami butun dunyo bo'ylab sog'liqni saqlash tizimlarida misli ko'rilmagan muammolarni keltirib chiqardi [2,3]. Jahonning yirik olimlari tomonidan uzoq yillar davomida olib borilgan kuzatuvlar natijasida inson organizmida har xil xastaliklar kelib chiqish xavfini tug'diradigan omillarning tasnifi, ularning ayrim guruhlarga ajratish tartibi va bunday kasalliklarning rivojlanishiga ta'sir darajasi o'rganilgan. Mazkur natijalarning tahliliga ko'ra inson salomatligi va uning ko'rsatkichlari 50-55% har bir kishining shaxsiy turmush tarziga, 20% iqlimga, tashqi muhitga va 15-20% irlisyatiga bog'liqdir. Tibbiy xizmat bilan bog'liq omillar faqat 5-10% hollarda inson sog'lig'ini belgilaydi. Demak inson sog'lig'ini belgilovchi omillarning 50-55%uni shaxsiy turmush tarziga, boshidan kechirgan kasalliklariga va kasallikdan keyingi asoratlariha bog'liqdir. COVID19 kasalligi kechishi bo'yicha har-xil og'irlilik darajalariga ega. Bu darajalar statsionar yordam, bemorlarni sun'iy nafas oldirish uchun intubatsiya qilish mumkin bo'lgan reanimatsiya bo'limlariga va umumi parvarishga qarab o'zgarishi mumkin [4,5]. Bundan tashqari bemorning yoshi va yondosh kasalliklari kabi xususiyatlari kasallik kechishining og'irligiga [6,7] va kasalxonada qolish muddatiga ta'sir qilishi mumkin [8]. Har bir shaxsning shaxsiy turmush tarzi, o'tkazgan kasalliklari, kasallikdan keyingi asorati yoki asoratsiz kechishi insonning o'sib rivojlanishi va salomatligining mustahkam bo'lishi uchun o'ziga xos shart-sharoitlarni vujudga keltiradi.


**Tadqiqot maqsadi:** Samarqand viloyati aholisi orasida Covid-19 kasalligidan keyingi bemorlarga kuzatilgan kasallikning asorati va asoratlarning o'ziga xos kechish xususiyatlarini o'rGANISH.

**Material va usullar:** Bugungi kunga qadar Samarqand viloyatida koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlardan anketa so'rovnomalar usulidagi ma'lumotlari hamda viloyat oilaviy poliklinikalarida murojaat etgan paytida tibbiy ko'rlik natijalarida aniqlangan bemorlarning birlamchi tibbiy ma'lumotlarining statistik tahlilidan foydalanilgan.

**Natijalar va muhokama:** Viloyatimizda koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarda Covid-19dan keyingi kuzatilgan kasalliklar, Covid-19 kasalligini asorati va asoratlarning o'ziga xos kechish xususiyatlarini tahlil qildik va baholadik. Bu bilan bemorlarda davolashga qaratilgan chora-tadbirlar ko'lagini kengaytirish va samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shamiz. Buning uchun viloyatimizda Covid-19 kasalligiga chalingan bemorlarni davolanish uchun davolash profilaktik muassasalarda murojat qilganlarida 24 savoldan iborat anketa so'rovnomalar savollari berildi. Anketa so'rovnomamizga 163 kishi ishtiroy etdi, bundan 65% ayollar 35% erkaklarni tashkil etdi (1 rasm)




So'rovnomamizga ko'ra Covid-19 tashxisi PSR va IXLA orqali tasdiqlangandan so'ng 34 (20.8%) nafar bemorimiz Covid-19 kasalligiga chalinganda stasionar sharoitda davolangan, 129 (78.6%) nafar ambulatory sharoitda davolangan( 2 rasm)



Bugungi kunda Covid-19dan tuzalib, uni asorati sifatida nima bezota qilganligi so'ralganda respondentlardan quyida natija olindi: Stasionar sharoitda davolangan bemorlarimizda 15 nafarida xotiraning pasayishi, 3 nafarida mushak, bo'g'imlarida og'riq , 15 nafarida bosh og'riq, 9 nafarida holsizlik, uyqu buzilishi, 12 nafarida hansirash, 3 hid,tam

bilish buzilishi, 3 soch to'kilishi, 6 nafarida depressiya, 9 vahima hissi, 12 qon bosim o'ynashi, 3 puls o'ynashi qayd etilgan. 3rasm

Ambulator sharoitda davolangan bemorlarimizda 43 nafarida xotiraning pasayishi, 35 nafarida mushak, bo'g'imlarida og'riq , 55 nafarida bosh og'riq, 55 nafarida holsizlik, 38 nafarida uyqu buzilishi, 29 nafarida hansirash, 9 hid,tam bilish buzilishi, 12 soch to'kilishi, 3 nafarida tishlar to'kilishi, 23 nafarida depressiya, vahima hissi, 21 nafarida qon bosim o'ynashi, 3 puls o'ynashi, 21 nafarida oshqozon ichak traktini buzilishi, 9 nafarida subfebril temperatura, 12 nafar respondentlarda ko'rishning buzilishi qayd etilgan(3 rasm)



Natijamizga ko'ra COVID-19 kasalligini boshdan kechirgan bemorlarda ma'lum darajada asoratlari qolishi aniqlandi. Sunga muvofiq Covid-19 tashxishi aniqlangan taqdirda kasallikni to'liq davo muolajasini oxiriga qadar shifokor nazorati ostida olib borishlar, kasallikdan tuzalgandan so'ng uni asoratlari qolmasligi uchun profilaktik ko'riklardan o'tib turishi, asorat paydo bo'lganda to'liq davo muolajalarini olishlari kerakligini ta'kidlab o'tamiz.

**Xulosalar** 1. COVID-19 kasalligini boshdan kechirgan bemorlarda kasallikni kechish darajasi, davolanish samaradorligi va kasallikdan keying asoratlarni olishga qaratilgan profilaktik tadbirdilar muhim ahamiyatga ega. COVID-19 kasalligini boshdan kechirgan bemorlarda ma'lum darajada asoratlari qolishi aniqlandi.

2. COVID-19 kasalligini davolashda stasionar sharoitda davolanish samarali ekanligi, kasallikdan keying asoratlari kamroq uchrashini samarali usuli hisoblanadi.

### References:

1. W.H. Organization.: Coronavirus disease 2019 ( covid-19): situation report, 51, (2020).
2. Abbas, A., Abdelsamea, M.M., Gaber, M.M.: Detrac: Transfer learning of class decomposed medical images in convolutional neural networks. IEEE Access 8, 74901 / 74913 (2020).
3. Weissleder R, Lee H, Ko J, et al. COVID-19 diagnostics in context. Sci Trans Med. 2020;12.
4. Clinical, laboratory and imaging features of COVID-19: A systematic review and meta-analysisAlfonso J. Rodriguez-Morales, Jaime A. Cardona-Ospina, [...], and Latin American



Network of Coronavirus Disease 2019-COVID-19 Research(LANCOVID-19)([https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/ PMC7102608/](https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC7102608/))

5. Review of the Clinical Characteristics of Coronavirus Disease 2019 (COVID-19) Fang Jiang 1, Liehua Deng 2, Liangqing Zhang 3, Yin Cai 1, Chi Wai Cheung 1, Zhengyuan Xia 4 (<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/32133578/>)

6. Wu Z, McGoogan JM. Characteristics and Important Lessons of the 2019 Coronavirus Disease (COVID-19) Outbreak in China: Summary of China Center for Disease Control and Prevention Report of 72,314 Cases. *JAMA*. 2020; 323(13):1239– 42. Available at: (<https://jamanetwork.com/journals/jama/fullarticle/2762130>)

7. Clark A., Jeet M., Warren-Gash K., Guthrie B., Van H. H., Mercer S. W., Sanderson S., McKee M., Troeger S., Ong K. I. et al. How many people are at increased risk of severe illness from COVID-19? Operational global, regional and national estimates for 2020. *MedRxiv*. 2020.

8. SPECIFIC FEATURES OF COVID-19 IN PATIENTS WITH CHRONIC DISEASES Mamatkulov B.M., Nematov A.A. ISSN 2181-7812 [www.tma-journals.uz](http://www.tma-journals.uz) 183 Гигиена, санитария и эпидемиология УДК: 616.98:578.834.1-036.22

9. Dustova G. K., Kurbanov A. A., Kurbonov K. R. Measures taken to prevent coronavirus infection in Samarkand region //Экономика и социум. – 2020. – №. 11. – С. 102-105.